



O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IJOBIY VA SALBIY BAHOLOVCHI
SIFATLARNING AKSIOLOGIK TAHLILI

Islomova Zahro Shuhrat qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
ingliz tili fani o'qituvchisi.
zahroislomova2484@gmail.com
tel.: +998881220012.

Ilmiy rahbar: Yuldasheva Nilufar Ergashovna

Annotatsiya: Mazkur maqola o'zbek va ingliz tillarida ijobiy va salbiy baholovchi sifatlarning aksiologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Baholovchi sifatlar orqali xalqning estetik va axloqiy qarashlari, insonlarga va hodisalarga nisbatan munosabati ifodalanadi. Tadqiqot doirasida "go'zal", "mehribon", "xushfe'l" kabi ijobiy hamda "qo'rs", "zaharxanda", "jahldor" kabi salbiy o'zbekcha sifatlar ingliz tilidagi "kind", "generous", "beautiful" va "rude", "jealous", "grumpy" kabi atamalar bilan qiyoslanadi. Sifatlarning leksik-semantik xususiyatlari, frazeologik birliklardagi qo'llanilishi va lingvokulturologik tafovutlari tahlil qilinadi. Tahlillar natijasida har ikki tildagi baholovchi birliklarning xalq tafakkuri, qadriyatlar tizimi va madaniy ong bilan uzviy bog'liqligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Aksiologik lingvistika, baholovchi sifatlar, ijobiy va salbiy baho, o'zbek tili, ingliz tili, lingvokulturologiya, frazeologik birliklar, qadriyatlar tizimi, semantika, milliy tafakkur

Annotation: This article is devoted to a comparative analysis of the axiological properties of positive and negative evaluative adjectives in Uzbek and English. Evaluative adjectives express the aesthetic and moral views of the people, their attitude towards people and phenomena. Within the framework of the study, positive Uzbek adjectives such as "go'zal", "mehribon", "khushfe'l" and negative Uzbek adjectives such as "qors", "zaharkhanda", "jahldor" are compared with English terms such as "kind", "generous", "beautiful" and "rude", "jealous", "grumpy". The lexical and semantic properties of adjectives, their use in phraseological units and linguo-cultural differences are analyzed. As a result of the analysis, the inextricable connection of evaluative units in both languages with the national mindset, value system and cultural consciousness is revealed.





Keywords: *Axiological linguistics, evaluative adjectives, positive and negative evaluation, Uzbek language, English language, linguoculturology, phraseological units, value system, semantics, national ideology.*

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному анализу аксиологических свойств положительных и отрицательных оценочных прилагательных в узбекском и английском языках. Оценочные прилагательные выражают эстетические и моральные воззрения народа, его отношение к людям и явлениям. В рамках исследования положительные узбекские прилагательные, такие как «*go‘zal*», «*mehribon*», «*khushfe‘l*» и отрицательные узбекские прилагательные, такие как «*qors*», «*zaharkhanda*», «*jahldor*» сопоставляются с английскими терминами, такими как «*kind*», «*generous*», «*beautiful*» и «*rude*», «*jealous*», «*grumpy*». Анализируются лексико-семантические свойства прилагательных, их употребление во фразеологических единицах и лингвокультурные различия. В результате анализа выявляется неразрывная связь оценочных единиц в обоих языках с национальным менталитетом, системой ценностей и культурным сознанием.

Ключевые слова: Аксиологическая лингвистика, оценочные прилагательные, положительная и отрицательная оценка, узбекский язык, английский язык, лингвокультурология, фразеологизмы, система ценностей, семантика, национальная идеология.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining nafaqat kommunikativ, balki aksiologik (qadriyatga oid) funksiyalarini aniqlash dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Aksiologik lingvistika til orqali insoniyatning qadriy munosabatlarini, axloqiy va estetik ideallarini tadqiq etishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda baholovchi sifatlar muhim semantik qatlamni tashkil etadi, chunki ular orqaligina insonlar, hodisalar va tushunchalarga bo‘lgan ijobjiy yoki salbiy munosabat ifodalanadi.

Mazkur tezisda o‘zbek va ingliz tillaridagi ijobjiy va salbiy baholovchi sifatlar aksiologik tahlil doirasida qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ikki tilda qadriyat yuklangan sifat birliklarining leksik-semantik, frazeologik, madaniy va stilistik xususiyatlarini aniqlash va ularni bir-biri bilan taqqoslashdan iborat.

Baholovchi sifatlar tilning emotsiyal va ekspressiv qatlamiga mansub bo‘lib, ular orqali subyektiv munosabat ifodalanadi. Ular madaniy tafakkur mahsuli sifatida xalq dunyoqarashini, axloqiy-me’yoriy qarashlarini namoyon etadi. Shu bois, bu turdag'i sifatlarning semantikasi va qo‘llanish konteksti madaniyatlararo pragmatika doirasida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek va ingliz tillaridagi baholovchi sifatlar o‘zaro umumiylilik va farqlarga ega bo‘lib, ularning tahlili orqali har bir tilga xos aksiologik





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mezonlar yuzaga chiqadi. Mazkur tadqiqot tarjimashunoslik, leksikologiya, til va madaniyat aloqalarini o‘rganishda metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

O‘zbek tilidagi “mehribon”, “xushfe’l”, “go‘zal”, “oqko‘ngil” kabi ijobiy, shuningdek, “zaharxanda”, “qo‘rs”, “pastkash”, “jahldor” kabi salbiy baho yuklangan sifatlar ingliz tilidagi “kind”, “generous”, “beautiful”, “friendly” hamda “rude”, “mean”, “ugly”, “jealous”, “grumpy” kabi birliklar bilan qiyoslanadi. Bu sifatlar asosida xalqning shaxsga nisbatan axloqiy mezonlari, ijtimoiy qadriyatları va estetik didi namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda quyidagi yo‘nalishlarda tahlil amalga oshiriladi:

1. **Leksik-semantik tahlil** – sifatlarning asosiy va ko‘chma ma’nolari, sinonimik-antonimik munosabatlari;
2. **Frazeologik birliklarda ishtiroki** – masalan, o‘zbek tilidagi “oq ko‘ngilli odam”, “dili qora”, “tili achchiq” kabi iboralar bilan ingliz tilidagi “a heart of gold”, “black-hearted”, “sharp-tongued” kabi frazeologizmlar tahlili;
3. **Lingvokulturologik yondashuv** – milliy mentalitet, qadriyat tizimi va estetik qarashlarning til birliklariga aks etishi;
4. **Stilistik va kommunikativ xususiyatlar** – bu sifatlarning og‘zaki va yozma nutqdagi vazifasi, emotsiyonal ta’siri.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, baholovchi sifatlar har bir tilda milliy tafakkur, madaniy qarashlar va ijtimoiy qadriyatlarning in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki tilda o‘xhashliklar bilan birga muhim tafovutlar ham mavjud: masalan, ayrim sifatlar o‘zbek tilida ijobiy qiymatga ega bo‘lsa, ingliz tilida neytral yoki salbiy ma’noda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ijobiy va salbiy baholovchi sifatlarning aksiologik tahlili til va tafakkur, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni oolib beradi. Bunday tadqiqotlar tilshunoslikda madaniyatlararo pragmatika, tarjimashunoslik, semantika va kommunikatsiya nazariyasi uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Исломова, З. (2024). O'zbek va ingliz tillarida aksiologik leksika tadqiqi. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(1/S), 245-249.
2. Islomova Z. Research of axiological lexicon in Uzbek and English languages // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Special Issue – 1 (2024) / ISSN 2181-3701 –B. 245-249.
3. ISLOMOVA, Z. (2024). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA AKSIOLOGIK BIRLIKLARNING O 'RGANILISHIGA DOIR. News of the NUUz, 1(1.9. 1), 298-299.
4. Islomova Z. On the Study of Axiological Units in Uzbek Linguistics // American Journal of Education and Evaluation Studies, Vol.1, No.7 (Oct, 2024), E-ISSN: 2997-9439 –P. 306-309
5. Yuldasheva N. Sodda gap qoliplari nutqiy voqelanishining lisoniy va nolisoniy omillari: Filol. fan. d-ri ... diss. –Qarshi, 2023. – B.218.
6. Xorazmiyeva N. *O'zbek tilida frazeologik birliklarning aksiologik xususiyatlari*. – Samarqand, 2019.

